



**SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGI HUQUQINING MILLIY
QONUNCHILIGIMIZDAGI O'RNI VA AHAMIYATI HAMDA
KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

"Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi va amaliyoti"

yo'nalishi magistratura talabasi

Telefon: +99894 338 69 99

E-mail: jasurbekbozorovqash@gmail.com

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxsiy hayot daxlsizligi va shaxslarning boshqa daxlsiz huquqlari milliy qonunchiligidan qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi va ularning qo'llanilish doirasi hamda shaxsiy hayot daxlsizligining konstitutsiyaviy asoslari o'rjanib tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: daxlsizlik huquqi, shaxsiy hayot axlsizligi, shaxsiy ma'lumotlar, oilaviy sir, jazo, javobgarlik, huquqbuzarlik, axborot erkinligi.

АНОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается и анализируется, как в нашем национальном законодательстве регулируются неприкосновенность частной жизни и другие неприкосновенные права личности и сфера их применения, а также конституционные основы неприкосновенности частной жизни.

Ключевые слова: право на неприкосновенность частной жизни, неприкосновенность частной жизни, личная информация, семейная тайна, наказание, ответственность, правонарушение, свобода информации.

ABSTRACT

This article examines and analyzes how privacy and other inviolable rights of individuals are regulated in our national legislation and the scope of their application, as well as the constitutional basis of privacy.

Key words: privacy, privacy, personal information, family secrets, punishment, liability, crime, freedom of information.

Mamlakatimizdagi shaxsiy daxlsizlik huquqining tartibga solinishi haqida gapiradigan bo'lsak, birinchi navbatda, *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini keltirishimiz o'rinli deb hisoblayman*. Keyingi o'rnlarda esa, ushbu Konstitutsiyadagi huquqlarning amaldagi ijrosini ta'minlash uchun qabul qilingan bir qator qonun hamda qonunosti hujjatlarga to'xtalib o'tamiz. *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi*, *O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi*, *O'zbekiston Respublikasi*



Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, O'zbekiston Respublikasining 12.12.2002 yildagi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 439-II-sonli Qonuni va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. Endi, ushbu hujjatlarning har biriga alohida-alohida to'xtalib o'tsak.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25 – 35-moddalari Shaxsiy huquq va erkinliklarga bag'ishlangan bo'lib. 25-moddada quyidagi jumlalar keltirilgan.

"Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir"¹. Bundan ko'rinish turibdiki, yashash huquqi har bir insonning uzviy, ya'ni ajralmas huquqi bo'lib ularning hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi keltirib o'tilgan. Bu degani, insonning hayoti bizning milliy qonunchiligidagi ko'ra butun O'zbekiston Respublika hududida eng oliy qadriyat hisoblanadi va inson hayotiga taxdid hamda suiqasdlar qonunda belgilangan tartibda eng og'ir jazo choralariga tortiladi.

Shaxsiy huquqlarning asosini tashkil qiladigan oilaviy sirlar hamda ularga aralashishlar ham bosh qomusimiz bilan tartibga solingan va bu 26-moddada keltirib o'tilgan. "Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas.

Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.

Hech kimda uning rozilgisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas."². Ushbu modda tahliliga ko'ra har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish va turar joyi daxlsizligi huquqiga ega ekanligi hamda hech kim qonun nazarda tutgan hollardan va tartibdan tashqari, ya'ni qonunchilikka ko'ra ayrim hollarda (*misol uchun: jinoyat alomatlari qayd etilgan hollarda*) birovning turar joyiga kirishi, tintuv o'tkazishi yoki uni ko'zdan kechirishi, yozishmalar va telefonda so'zlashuvlar sirini oshkor qilishi mumkin emasligi keltirib o'tilgan.

Konstitutsyaning 27-moddasida esa, har bir shaxs erkinlik hamda shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi va hech qanday shaxs qonunda asoslanmagan aybi uchun qamoqqa olinishi hamda hibsda ushlab turilishi mumkin emasligi keltirib o'tilgan.

"Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas"³.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son.

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son.

Bundan tashqari, 31-moddada shaxsiy hayot daxlsizligi haqida keltirib o'tilgan bo'lib, ushbu modda yangi Konstitutsiyamizga kiritilgan yangi moddalardan biri hisoblanadi "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.

Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.

Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.

Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi."⁴. Ushbu modda 2023 yil 30-aprelda o'tkazilgan Referendum natijasida qabul qilingan yangi Konstitutsiyada alohida modda sifatida kiritildi va bu shaxsiy daxlsizlik huquqi konstitutsiyaviy maqomga aylandi.

Bundan tashqari, 32-moddada quyidagi jumlalar ham keltirib o'tilgan.

"O'zbekiston Respublikasi Fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir"⁵. O'zbekiston Respublikasi hududida yashaydigan barcha fuqarolar O'zbekiston Respublikasining istalgan joyiga ko'chishi yoki chiqib ketish huquqiga ega hisoblanadi, biroq qonunda cheklangan holatlar bundan mustasno.

Shu bilan birga, Konstitutsyaning 33-moddasida esa, "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin"⁶. Ushbu modda tahliliga ko'ra har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega hamda har kim o'zi istagan ma'lumotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, biroq ushbu normada amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa

⁴ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son.

cheklashlar qo‘yilgan ma’lumot hamda axborotlarni olish, tarqatish, saqlash mustasno holatlar sirasiga kirishi keltirilgan.

Shu bilan bir qatorda *O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida* Konstitutsiyada belgilangan shaxsiy huquqlarning buzilishining oldini olish hamda tartibga solishga qaratilgan bir qator bandlar mavjud. *Ushbu kodeksning 46¹-moddasida* shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini buzganlik uchun javobgarlik masalalari keltirib o‘tilgan. “Shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uning roziligesiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish”⁷. Ushbu modda mazmuniga ko‘ra shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uning roziligesiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish qonunda belgilangan tartibda yuqorida keltirib o‘tilgan javobgarlikka sabab bo‘ladi. Shu bilan birga *ushbu kodeksning 46²-moddasida* esa, shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik keltirib o‘tilgan.

Bundan tashqari, *O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining* alohida moddalarida keltirib o‘tilgan bo‘lib, unda asosan shaxsiy huquqlarni buzganlik uchun javobgarlik masalalari keltirib o‘tilgan. Xususan, *JKning 141¹-moddasida* shaxsiy hayot daxlsizligini buzganlik uchun javobgarlik keltirib o‘tilgan.

“Shaxsning shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uning roziligesiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa”⁸. Ushbu modda tahlilidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, kimda kim fuqarolarning shaxsiy hayot daxlsizlik huquqlarini, ya’ni shaxsiy yoki oilaviy sirini tashkil etuvchi shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uning roziligesiz qonunga xilof ravishda yig‘ish yoki tarqatadigan bo‘lsa va bu ma’muriy jazo qo‘llanganidan keyin sodir etiladigan bo‘lsa, yuqorida keltirilgan asoslarga ko‘ra javobgar bo‘ladilar.

Bundan tashqari, *ushbu kodeksning 141²-moddasida* shaxsga doir ma’lumotlarni buzganlik uchun javobgarlik keltirib o‘tilgan. “Shaxsga doir ma’lumotlarni qonunga xilof ravishda yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda Shaxsga doir ma’lumotlar bazalarining davlat reyestrida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxsga doir ma’lumotlar bazalarida shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga riosa etmaslik, o‘sha harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi 01.12.2021-y., 03/21/734/1113-son.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son.

sodir etilgan bo‘lsa”⁹. Ushbu moddaga ko‘ra shaxsga doir ma’lumotlarni qonunga xilof ravishda yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda shaxsga doir ma’lumotlar bazalarining davlat reyestrida belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxsga doir ma’lumotlar bazalarida shaxsga doir ma’lumotlarni yig‘ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik holatlari uchun yuqoridagi moddada keltirilgan jazo chorralari bilan javobgarlikka tortilishga asos bo‘lishi keltirib o‘tilgan.

Bundan tashqari, ushbu *kodeksning 142-moddasida* fuqarolarning shaxsiy daxlsiz huquqlaridan biri bo‘lgan turar-joy daxlsizligi huquqini buzganlik uchun qat’i belgilangan jazo chorralari keltirib o‘tilgan. “Turar joyga unda yashovchilarning erkiga xilof ravishda zo‘rlik ishlatib g‘ayriqonuniy bostirib kirish”¹⁰.

Bundan tashqari, ushbu *kodeksning 143-moddasida* ham shaxsiy huquqlarning asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini buzishganli uchun javobgarlik keltirib o‘tilgan. “Xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlarning sir saqlanishi tartibini qasddan buzish, shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilgandan keyin sodir etilgan bo‘lsa”¹¹. Barchamiz yaxshi bilamizki, xat-yozishmalar, telefonda so‘zlashuv, telegraf xabarlari yoki boshqa xabarlar sir saqlanishi kerak bo‘lgan shaxsiy ma’lumotlar sirasiga kiradi va ularning himoya qilinishi esa Konstitutsiya bilan himoyalangan.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Ma’muriy javobgarlik ham Jinoyat qonunchiligi ham Konstitutsiyada belgilangan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqi bo‘lgan shaxsiy daxlsizlik huquqlarining buzilishiga qat’iy belgilangan tartibda murosasiz choralar taqdim etadi va ular tegishli ravishda qilmishning og‘irlik darajasiga qarab dastlab Ma’muriy tartibda, keyin esa Jinoyat qonunchiligi asosida tartibga solinadi.

Shu bilan birga *O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining* bir qator tegishli moddalarida ham jinoyatlarni ochish va tergov qilishga doir protsessual harakatlarni amalaga oshirish jarayonida fuqarolarning, shaxslarning shaxsiy daxlsiz huquqlarini buzmaslik uchun ushbu kodeksda ham bir qator normalar keltirib o‘tilgan.

Dastlab, birinchi navbatda ushbu hujjatning prinsiplariga to‘xtalsak, chunki, bilamizki, nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar, balki barcha mexanizmlar ma’lum bir

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son

prinsiplarga asoslangan bo‘ladi va ushbu prinsplar doirasida ishlaydi hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu prinsiplardan biri bu *17-moddada* keltirib o‘tilgan shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish hisoblanadi.

“Sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ishda qatnashayotgan shaxslarning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shart.

Hech kim qyinoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma’lumotlar tarqalib ketishiga olib keladigan, sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yadigan, asossiz ravishda unga jismoniy va ma’naviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish yoki qarorlar chiqarish taqiqlanadi”¹². Ushbu prinsipdan ko‘rinib turibdiki, unga ko‘ra jinoyat protsessual jarayonida bevosa ishtirot etadigan shaxslar ham, sudya, prokuror, tergovchi va surishtiruvchi ham ishni olib borish jarayonida qatnashayotgan shaxslarning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari shart hisoblanadi va jinoyatni ochish jarayonida hech kim qyinoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqlarga duchor etilishi mumkin emas. Bundan tashqari, inson sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, uning shaxsiy hayotiga taalluqli ma’lumotlar tarqalib ketishiga olib keladigan, sog‘lig‘ini xavf ostiga qo‘yadigan, asossiz ravishda unga jismoniy va ma’naviy azob-uqubat yetkazadigan harakatlar qilish yoki qarorlar chiqarish taqiqlanishi keltirib o‘tilgan. Bu normaning prinsplardan biri ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, butun bir Jinoyat protsessual kodeksi ushbu norma doirasida amalga oshiriladi va xodimlar ushbu normalarga amal qilishi shart hisoblanadi.

Jinoyat protsessual kodeksning yana bir prinsipi keladigan bo‘lsak, bu *18-moddada* keltirilgan bo‘lib, ushbu modda o‘zida fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish prinsipini qamrab olgan.

“Jinoyat ishini yuritish uchun mas’uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shart.

Hech kim sud qaroriga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas.

Sud va prokuror qonunga xilof ravishda ozodlikdan mahrum etilgan yoki qonun yoxud sud hukmida nazarda tutilganidan ortiq muddat hibsda ushlab turilgan yoki qamoqda saqlangan yoxud uy qamog‘ida bo‘lgan har qanday shaxsni darhol ozod qilishi shart.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son

Fuqarolarning shaxsiy hayoti, ularning turar joylari daxlsizligi, o‘zaro yozishmalari, telegraf aloqalari va telefon orqali so‘zlashuvlarining sir saqlanishi qonun bilan qo‘riqlanadi.

Shaxs egallab turgan turar joy yoki boshqa bino va hududda tintuv o‘tkazish, olib qo‘yish, ko‘zdan kechirish, aloqa muassasalarida pochta-telegraf jo‘natmalarini xatlab qo‘yish va ularni olib qo‘yish, telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so‘zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish faqat ushbu Kodeksda belgilangan hollarda va tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Ishni yuritish jarayonida shaxsning huquq va erkinliklarini buzish oqibatida unga yetkazilgan zarar ushbu Kodeksda belgilangan asoslar va tartibda undirilishi lozim”¹³. Ushbu prinsipdan ko‘rinib turibdiki, ushbu modda katta doirani qamrab olgan hisoblanadi. Unga ko‘ra jinoyat ishini yuritish uchun mas’uliyatli barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar jinoyat protsessida qatnashayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishlari shartliligi keltirilgan bo‘lib, bunda umumiy shaxsiy huquqlardan biri bo‘lgan shaxsning sha’ni va qadr-qimmatining hurmat qilinishi shartliligi keltirilgan.

Bundan tashqari, fuqarolik qonunchiligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, *O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 99-moddasida* shaxsiy-nomulkiy huquqlar va boshqa nomoddiy ne’matlar keltirib o‘tilgan.

“Shaxsning hayoti va sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘sni, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug‘ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo‘lgan boshqa nomoddiy ne’matlar tortib olinmaydi va o‘zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi”¹⁴. Ushbu moddadan ko‘rinib turibdiki, shaxsning hayoti va sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, ishchanlik obro‘sni, shaxsiy hayotining daxlsizligi, xususiy va oilaviy siri, nomga bo‘lgan huquqi, tasvirga bo‘lgan huquqi, mualliflik huquqi, boshqa shaxsiy nomulkiy huquqlar hamda tug‘ilganidan boshlab yoki qonunga muvofiq fuqaroga tegishli bo‘lgan boshqa nomoddiy ne’matlar tortib olinmaydi va o‘zga usul bilan boshqa shaxsga berilmaydi deb keltirilgan. Ushbu moddaning o‘zi ham shaxsiy huquqlarning qay darajada himoya qilinishini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Keyingi navbatda yuqorida keltirib o‘tilgan *O‘zbekiston Respublikasining 12.12.2002 yildagi 439-II-sonli “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuniga* to‘xtalib o‘tamiz. Ushbu qonunning asosiy maqsadi axborortlarni olish, tarqatish hamda saqlash jarayonida qanday tartib-qoidalarga hamda

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 12.04.2022-y., 03/22/762/0290-son

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 30.03.2022-y., 03/22/760/0249-son

prinsiplarga asoslanishi keltirib o'tilgan va biz bu hujjatdan mavzuga doir bandlarni keltirib o'tamiz. Ushbu o'rinda biz bevosita "*Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida*"gi *Qonunning 13-moddasiga* to'talib o'tishimiz kerak bo'ladi. "Shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalanishi zarur sharoitlari va kafolatlarini yaratish, shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositasida qonunga xilof ravishda ruhiy ta'sir ko'rsatilishidan himoya qilish yo'li bilan ta'minlanadi.

Jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy ma'lumotlar maxfiy axborot toifasiga kiradi.

Jismoniy shaxsning rozilgisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, xuddi shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefonagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno"¹⁵. Ushbu normaning birinchi bandida shaxsning axborot borasidagi xavfsizligi uning axborotdan erkin foydalana olishi hamda foydalanish jarayonida ularga zarur sharoitlari va kafolatlarini yaratish, ularning shaxsiy hayotiga taalluqli sirlarini saqlash, axborot vositalari orqali qonunga xilof ravishda ruhiy ta'sir ko'rsatilishining oldini olish hamda ushbu holatlardan himoya qilishi kerakligi keltirilgan. Ikkinci bandda esa, yuqorida Konstitutsiyaning moddalarida va boshqa bir qator normalarda keltirib o'tilgani kabi jismoniy shaxslarga taalluqli shaxsiy ma'lumotlarning maxfiy axborot toifasiga kirishi keltirib o'tilgan. Keyingi bandda esa, jismoniy shaxsning rozilgisiz uning shaxsiy hayotiga taalluqli axborotni, shuningdek shaxsiy hayotiga taalluqli sirini, yozishmalar, telefonagi so'zlashuvlar, pochta, telegraf va boshqa muloqot sirlarini buzuvchi axborotni to'plashga, saqlashga, qayta ishlashga, tarqatishga va undan foydalanishga yo'l qo'yimasligi hamda qonunchilikda belgilangan mustasno hollar mavjud ekanligi keltirib o'tilgan.

Ushbu bandga o'xshagan moddalar va qonunchilik hujjatlarini tahlil qilib borar ekanmiz ularning oxiriga yetmasligimiz tayin. Yuqorida keltirilgan asosiy qonunchilik hujjatlarida keltirib o'tilgan normalarga qaraydigan bo'lsak, ularning barchasi Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan huquqlarni himoya qilish hamda ushbu huquqlarning ijrosini ta'minlash uchun xizmat qilishini ko'ramiz. Chunki ushbu huquqlarning asosi *O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida* keltirilgan bo'lib, bu esa, o'z navbatida, ushbu huquqlarning, ya'ni shaxslarning shaxsiy huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari qay darajada ustuvor ekanligini ko'rsatib beradi, biroq bugungi kunda ushbu sohaning zamon bilan hamnafas ravishda rivojlanib borishini hisobga olib, barcha muammolarni konstitutsiyaviy darajasida tartibga

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

solistning iloji bo‘lmay qolmoqda, shuning uchun bu sohada yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish masalasiga ham e’tibor qaratish muhim deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I. Rahbariy adabiyotlar:

- 1.1. Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi” T.5. –T.: “O‘zbekiston”, 1997.
- 1.2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi” T.: NMU, 2017. – 48.

II. Normativ huquqiy hujjatlar:

- 2.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
- 2.2. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga qo‘shilish haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Qarori, 09.12.1992 yildagi 757-XII-sон.

III. Maxsus adabiyotlar:

- 3.1. Fayziyev, I. S. (2021). Yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqini ta’minlashning milliy va xalqaro-huquqiy asoslari. Scientific progress, 2(5), 259-266.

IV. Xorijiy adabiyotlar:

- 4.1. Гасанов К.К., Несмелов П.В. О праве на неприкосновенность личной жизни // Вестник Московского университета МВД России. 2006. № 1. С. 15-16.
- 4.2. Петросян М.С. О праве на неприкосновенность частной жизни // Канта. 2006. № 35.

V. Xorijiy davlatlar normativ-huquqiy hujjatlari:

- 5.1. Rights, C. (1948). Universal declaration of human rights. General Assembly Resolution 217A (III) of.
- 5.2. Rights, Cultural. "Universal declaration of human rights. General Assembly Resolution 217A (III) of (1948).

5.3. <https://glazunovcons.ru/images/pictures/glazunovcons/konventsiya.pdf>.

VI. Elektron hujjatlar:

- 6.1. www.lex.uz.
- 6.2. www.onlinezakon.ru.
- 6.3. www.norma.uz.